

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi Sariev Qaxramon Ramatullaevichning ma'ruzasi

Assalomu alaykum aziz mehmonlar va seminar ishtirokchilari!

Barchangizni ko'rganimnan hursandman va bugungi "evropa tiklanish va tarraqqiyot banki hamda kichik va o'rta biznes sub'ektlari o'zaro hamkorlikni o'rnatish mexanizmi" mavzusidagi seminar-treningga xo'sh kelibsiz. Shuningdek, mazkur tadbir tashkilotchilari - evropa tiklanish va tarraqqiyot bankining Markaziy Osiyo va Rossiya bo'yicha boshqaruv direktori Natal'ya Xanjenkova xonim boshchiligidagi delegatsiya a'zolarigao'z minnatdorchiligimni bildirishga ijozat bergaysiz.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan kichik va o'rta biznesektorinirivojlantirishgakatta e'tibor qaratilmoqda.2017 yilda Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda alohida e'tibor «Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun» degan tamoyil va «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ezgu g'oyaning, eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini ta'minlash orqali hayotga amaliy tatbiq etilishiga qaratildi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasida 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi.

Mazkur dasturning yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash deb belgilandi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sohasida ichki bozorni shakllantirish orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etib, mamlakatga daromad kiritishda muxim rol o'ynashini ta'qidlab o'tish joiz.

Kichik va o'rta biznes oldida turgan muammolarni bartaraf etish maqsadida barcha darajadagi davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish zarur.

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning roli haqida aytadigan bo'lsak, 2017 yilning 9 oyi yakunlariga ko'ra, kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni 12 515tani tashkil etdi. Ushbu tadbirkorlik sub'ektlarining respublika yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi 47,3%, xizmat ko'rsatish sohasida - 61,3%, sanoatda - 18,0% tashkil etdi. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlarining respublika eksportidagi ulushi 8,6% tashkil etdi.

Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2016 yilda jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 7,0 mln. AQSh dollarini yoki respublika bo'yicha jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar umumiyhajmining 50,9%ni tashkiletadi.

Rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirishni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning qarorlari bilan respublikaning Nukus tumanida «Nukus-farm» erkin iqtisodiy va Mo'ynoq tumanida «Mo'ynoq» kichik sanoat zonalarini tashkil etildi.

Ushbu zonalar rezidentlariga bir qator bojxona va soliq imtiyozlari qo'llanilishi belgilangan bo'lib, quyidagilarniaytib o'tish lozim:

- 2027 yil 1 yanvargacha «Mo'ynoq» kichik sanoat zonasi hududida sanoat faoliyatini amalga oshiruvchi yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari barcha turdagi soliqlardan ozod etilgan;

- «Nukus-farm» erkin iqtisodiy zonasining rezidentlari er solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, mikrofirma va kichik korxonalarining yagona soliq to'lovi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi yo'l hamdata'lim va tibbiyot muassalarini moddiy-texnik bazasini rivojlantirish byudjetdan tashqari jamg'armalariga majburiy to'lovlaridan jalb etgan investitsiyalar hajmlari asosida belgilangan muddatlarga ozod etilgan.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiyalarni jalb etish uchun qo'yidagi ustuvor tarmoqlarni aytib o'tish lozim:

- **qishloq ho'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash (dukkaklilar, kunjut).** Tashqi bozorlarda yildan yilga talab oshib borayotgan dukkakli va kunjut mahsulotlarini etishtirish miqdori respublika bo'ylab ortib bormoqda;

- **mintaqaning mineral va xomashyo resurslaridan foydalangan holda qurilish materiallarini ishlab chiqarish.** Beruniy va Qorao'zak tumanlarida qurilish va qoplama zahiralari mavjud (tsement xomashyosi, vermikulit, marmar, rodonit);

- **to'qimachilik va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish.** Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 4 ta ip-kalava ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat yuritmoqda, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi doirasida shu kabi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha qo'shimcha 9 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan;

- **tselyulloza-qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish.** Respublika hududidatselyulloza-qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan xomashyo bazasi, jumladan, qamish butalari, bug'doy va guruch somoni, paxta g'oz poyasi mavjud;

- **qizilmiya ildizi ekstraktini ishlab chiqarish.** Xorijiy bozorlarda talab katta bo'lgan qizilmiya ildizi ekstrakti ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun respublika hukumati tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Kelgusi 5 yil ichida xomashyoni etkazib berish uchun, umumiy 25,0 ming gektar maydonlarda qizilmiya ildizini etishtirish bo'yicha plantatsiyalarni yaratish rejalashtirilgan;

- **balıq mahsulotlarini etishtirish va ishlab chiqarish.** Respublika hududida umumiy maydoni 89,9 gektarga teng bo`lgan 123ta tabiiy va 209ta sun`iy ko`l mavjud bo`lib, ularda harhil baliq turlarini etishtirishni tashkil etish mumkin;

- **chorvachilikni rivojlantirish.** 2017 yilda chorvachilik sohasida respublika bo`yicha 101,5 ming tonna go`sht etkazildi.

Hulosa qilib aytganda, bugungi seminar biz uchun muhim voqea hisoblanadi va umid qilamanki, u respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo`lida jiddiy qadam bo`ladi.

Oldinga qo`ygan maqsadlaringizga erishishda muvaffaqiyat tilayman.

E`tiboringiz uchun raxmat!

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma`lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)